

**BOLA OBRAZINING XARAKTERLI XUSUSIYATLARI  
(CH.AYTMATOV VA O'.HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA)**

*Tuychiboyeva Nodira Komiljon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada Ch.Aytmatov va O'.Hoshimov asarlari tipologik jihatdan tahlil qilindi. Hamda ularning asarlaridagi asosiy qahramon bo'lgan bola obrazining xarakterli xususiyatlari, bola ruhiyatidagi o'zgarishlarga sabab bo'lgan omillar ko'rsatildi.

**Tayanch so'z va iboralar:** ijtimoiy voqelik, dualistik qarash, shafqatsiz realism, ideal namuna, analitik xarakter, didaktizm, didaktik elementlar.

**Annotation.** The article the works of Ch.Aitmatov and O'.Khoshimov were analyzed typologically. Also, the characteristic features of the character of the child, who is the main character in their works, and the factors that caused changes in the child's psyche were shown.

**Key words and word expressions:** social reality, dualistic view, brutal realism, ideal model, analytical character, didacticism, didactic element.

**Аннотация.** В статье типологически проанализированы произведения Ч.Айтматова и У.Хошимова. Также характерные черты, характера ребенка являющегося главным героем в их произведениях, являются факторами, вызывающими изменения в детской психике.

**Ключевые слова:** социальная реальность, дуалистический взгляд, brutальный реализм, идеальная модель, аналитический характер, дидактизм, дидактический элемент.

**Kirish.** Badiiy adabiyot dastlab paydo bo'lgandanoq unda asosan ijtimoiy voqelik aks ettirilgan. Butun bir asarning syujet va kompozitsiyasi ana shu ijtimoiy shaxslarning o'zaro munosabati jarayonida yuzaga keladi. "Badiiy asarning voqelik bilan qay darajada bog'liqligi sotsiologik va gnoseologik metodlar qo'llanganda namoyon bo'ladi"<sup>1</sup>. Biz tahlilga tortgan yozuvchilar asarlarida ijtimoiy voqelik mahorat bilan aks ettirilishi natijasida o'ziga xos xarakterlar yaratilgan. Ulkan ijtimoiy masalalar va ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lgan qahramonlar obrazlari O'.Hoshimov va Ch. Aytmatov asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu mualliflar asarlarida asosan ijtimoiy masalalar bola obrazi orqali yoritilgan. "Badiiy asar ijtimoiy mazmuni yetuk badiiy shaklda ifodalashi zarur. Ijtimoiylik va badiiylikning uzviy birligi, yaxlitligi asarning yutug'ini belgilaydi"<sup>2</sup>. Har ikki adib asarlarida tabiiylik va ijtimoiylik mutanosiblik kasb etgan. O'tkir Hoshimov asarlarida bola tarbiyasi va dunyoqarashini shakllanishida ona obrazi asosiy o'rin egallagan bo'lib, uning ijtimoiy masalalarga aralashuvi, muammoning hal qilinishidagi tasiri qay darajada ekanligi ko'rsatilgan. Ayniqsa, bu adibning "Dunyoning ishlari" qissasida yorqin ifodalangan. Ch.Aytmatov asarlarida bu vazifa ko'proq bobo obraziga yuklatiladi. Bunga misol

<sup>1</sup> Rasulov A. Tanqidchilik ufqlari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985. –B.16.

<sup>2</sup> O'sha asar. –B. 18.

qilib muallifning “Oq kema”, “Sohil bo‘ylab chopayotgan olapar” asarlarini keltirishimiz mumkin. Ushbu mualliflarning asarlarida tabiat tasviri inson ruhiyatidagi holatlarni haqqoniy aks ettirishda alohida ahamiyatga ega. Bu masalada A. Rasulov Ch. Aytmatovning asarlariga quydagicha baho beradi: “Chingiz Aytmatovning “Oq kema”sidagi bola har doim tabiat quchog‘ida – borliqdagi narsalar uning “o‘rtoqlari”. U katta xarsang, ulkan daraxt, daryo to‘lqini, o‘t- o‘lanlar bilan bemalol so‘zlashadi. “Asrga tatigulik kun” romanida tabiat barcha murakkabliklari, ichki bog‘liqliklari bilan tasvirlanadi”<sup>3</sup>. Shu bilan birga yozuvchi asarlarida asotir va afsonalardan foydalanib tabiat va undagi sirliliklarni tasvirlash yetakchilik qiladi. O‘tkir Hoshimov asarlarida tabiat va jamiyatning ichki bog‘liqliklari aks etgan. “O‘tkir Hoshimov ning “Dunyoning ishlari” qissasi zaminida ulkan bir haqiqat o‘z ifodasini topgan, tabiat va jamiyatning jiddiy bir muammosi xaqqoniy yoritilgan”<sup>4</sup>. Demak, yozuvchiga ilhom beruvchi tabiat o‘lmas asarlarning asosiy manbaasi ekan. Bu haqida M. Qo‘shjonov “Adabiyotda estetik kategoriyalar” nazariy tadqiqotida shunday yozadi: “Insonning his-tuyg‘ulari asosan ikki narsaga bog‘liq, ulardan biri qamrab olgan tabiat olami, ikkinchisi – uning o‘z faoliyati”<sup>5</sup>. Har ikki adib ijodida tabiat mahorat bilan tasvirlanishi natijasida jonli inson qiyofasiga aylanadi. Mualliflar asarlaridagi qahramonlar kuchli psixologizm tasirida jonsiz predmetlarga joni borday murojat qiladi. Ularning qahramonlari uchun tabiat do‘st, ruhiy madad beruvchi vositadir.

Insoniyatning bolalik davrlariga borib taqaluvchi yaxshilik va yomonlik to‘g‘risidagi dualistik (ikki yoqlama) qarashlar Ch. Aytmatov va O‘. Hoshimov asarlaridagi bosh g‘oya hisoblanadi. Ularning asarlarida xudbin va zolim insonlarga har doim bola obrazi yoki bo‘lmasa qalbi toza, pok, samimiy inson obrazi qarshi qo‘yiladi. Bunday holatlar O‘. Hoshimovning “Dunyoning ishlari” va “Ikki karra ikki-besh” asarlarida ko‘rinsa, Ch. Aytmatovning “Oq kema” va “Asrga tatigulik kun” asarlarida uchraydi. Lekin ularning asarlaridagi qahramonlarni osongina salbiy yoki ijobiyga ajratib qo‘yish to‘g‘ri emas. Ch. Aytmatov o‘z davri to‘g‘risida quydagilarni yozadi: “Revalyutsiyaning dastlabki yillari sovet adabiyotida ehtirolarning romantik jo‘shqinligi, butun ilgarigi tasavvurlar tilka-pora bo‘lishining ifoda etishi xarakterli edi. Jamiyatimiz taraqqiyoti bilan biz shafqatsiz realizmga keldik. Didaktikadan, ideal namunalarni namoyish etishdan esa analitik xarakterdagi tasvirga, murakkabini tushinishga o‘tdik”<sup>6</sup>. Bundan ko‘rinib turibdiki, yozuvchi umri davomida tinimsiz izlangan va o‘z uslubini shakllantirib, rivojlantirib borgan. Asarlarida ham obrazlarning tobora murakkablashishi kuzatiladi. Yozuvchi ijodida eng ko‘p qoralangan illat bu xudbinlikdir. Muallifning “Oq kema” asarida xudbinlik nafaqat, chol va bolaning balki, butun bir jamiyat hayotida qay darajada zararli ekani ko‘rsatilgan. O‘. Hoshimovning “Ikki karra ikki- besh” asari qahramoni Qo‘shoqvoyni ham

<sup>3</sup> O‘sha asar. –B. 59.

<sup>4</sup> O‘sha asar. –B. 123.

<sup>5</sup> Qo‘shjonov M. Saylanma. 2-tom. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1983. –B.136.

<sup>6</sup> Xolliyev N. Ohangdosh obrazlar. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1982. –B.70.

fojeasiga sabab, Rais buvaning xudbinligi edi. Bu illat haqida yozuvchining o‘zi shunday deydi: “Xudbinlik bu shunday illatki, san’atkor iste’dodini ham, oilani ham, do‘stlikni ham poymol qiladi. Chunki xudbin faqat o‘zini o‘ylaydi, o‘zini sevadi va hokazo”<sup>7</sup>. Yuqorida qayd etilgan: “Oq kema”, “Ikki karra ikki- besh”, “Dunyoning ishlari” asarlarida bola obrazi alohida ahamiyatga ega. T.Rasulov badiiy obrazga shunday baho beradi. “Badiiy obraz deb favqulodda muhim emotsiya qo‘zg‘ovchi, yagonalik bilan hayotda bor va bo‘lishi mumkin bo‘lgan umumiylikning muayyan hissiy konkretlikda tipiklashtirib gavdalantirilgan g‘oyaviy-estetik birligi tasviriga aytiladi”<sup>8</sup>. Chingiz Aytmatov va O‘tkir Hoshimov uslubidagi o‘xshash jixatlardan biri shundaki, har ikki adib ijodida ko‘p uxchraydigan asarda didaktizm asosidagi rivoyatni keltirish an‘anasidir. “Hayot haqidagi, inson to‘g‘risidagi ibratli xulosalarsiz, dono mulohazalarsiz adabiyot yo‘q. Hamma gap asarda didaktik elementlarning qay tarzda ifodalanishida. Ular adabiyot qonuniyatlariga ko‘ra obrazli ifodalansa, asarning mohiyatiga singdirib yuborilgan bo‘lsa, unda tasvirlangan voqealar xarakterlar taqdiridan o‘z-o‘zidan kelib chiqsa, yaxshi. Aksincha, ular asarda quruq va yalang‘och ifodalansa, unga zo‘rma-zo‘raki yopishtirilgan bo‘lsa - bu yomon”<sup>9</sup>. Asarda didaktik maqsadlarni amalga oshirishdagi eng maqbul obraz bola fenomenidir. O‘zgarib, takomillashib turuvchi uslubning shakllanishida dastlabki bosqich bolalik taassurotlari bilan bog‘liq. “Albatta bolalik inson umrining muhim davri – uning xarakteridagi ko‘pgina sifatlar ayni bolalik chog‘ida shakllana boshlaydi. Bolalikda ko‘rilganlar keyinchalik ijodkorning butun ijodi davomida tajalli berishi mumkin. Bunga shubha yo‘q”<sup>10</sup>. Yillar o‘tgani sari bolalik xotiralarini esga olish ham ortib boradi. Adiblar ijodidagi bolalik xotiralarini ham nisbatan keyinroq ko‘rina boshlandi. Har ikki yozuvchida ham ertak va afsonalardan ta’sirlanish ijod uchun yo‘l ochgan. Folklor namunalarini hayotiy faktlar orqali qayta ishlash natijasida o‘lmas asarlar yaratdilar. Ularning bolalik davrida bobo va buvilaridan eshitgan ertak va rivoyatlari asar syujetini ochib beruvchi asosiy vosita vazifasini bajaradi. “Shuning uchun ham ishonch bilan aytish kerakki, keksalar va bolalar haqidagi adabiyotda yolg‘on kam va sof adabiyotdir. Biz nimaiki noma’qulchilik qilsak , qo‘limizdan ish keladigan paytda qilamiz”<sup>11</sup>. Shu bilan birga bolada axloq va tarbiyaning istedad shakllanishida ham alohida o‘rni, tasiri bor. Ispan faylasufi Lutsiy Seneka bilim, ma’rifat olishni bolalikdan boshlash zarur deydi. Buyuk yunon faylasufi Aflotunning “Qonunlar” asarida tarbiya to‘g‘risida quyidagicha fikrlar uchraydi. Men tarbiya deb, avvalo, bolalarda namoyon bo‘ladigan yaxshi fazilatlarni aytaman. Bolaning dilida uyg‘onadigan lazzat, zavq, do‘stlik, g‘am-alam va yomon ko‘rish tuyg‘ulari hali aql-idrok bilan farqlanib, sinovdan o‘tkazilmagan bo‘ladi. Shu sababli, bola aql-idroki hali yetarli o‘smagani sababli yomon, yengiltak, zararli fe’l-harakatlardan ham zavqlanishi mumkin. Ezgu ishlarning huzur, lazzatlanish

<sup>7</sup> O‘sha asar . –B.95.

<sup>8</sup> Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989. 88-b

<sup>9</sup> O‘sha asar. –B. 94

<sup>10</sup> O‘sha asar. –B.90.

<sup>11</sup> Qo‘shjonov M. Onaga tazim, bolaga mehr. Toshkent. “Yosh gvardiya” nashriyoti.1983. –B. 28.

va dardga aloqador qismini, nimani yomon ko‘rish kerak bo‘lsa, o‘shani boshdan oxirigacha yomon ko‘rishga, nimani sevish kerak bo‘lsa, o‘shani doimo sevishga zaruriy darajada o‘rgatadigan qismini alohida ajratib chiqishni tarbiya deb atash mumkin”<sup>12</sup>.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotning asosiy, bosh maqsadi bo‘lgan tarbiyani, avvalo, qalbdan boshlash zarur. Qalb tarbiyasi esa bolalikdan boshlanadi.

Chingiz Aytmatov va O‘tkir Hoshimov asrlaridagi abadiy ezgulik tuyg‘ularining aynan bola obrazi orqali ifodalanishi ham bejiz emas. Insoniyatning kelajagiga ishora bo‘luvchi obraz orqali adiblar azaliy muammolarga yechim izlaganlar deyish mumkin. Chunki ular asarlarida yonma- yon tasvirlangan keksalar va bolalar obrazlari o‘rtasidagi munosabatlarda bu narsa ko‘rinadi. “Go‘zallikni, yaxshilikni anglash va ular haqida mustahkam fikrlar, qarshlarga kelsak, keksaroq yoshdagi odamlarda bo‘ladi. Go‘zallikdan zavqlanish va yaxshilar qayg‘usiga hamdardlik bildirib, dard chekish fazilatlariga ega bo‘lgan odam barkamol insondir”<sup>13</sup>. Ushbu fikrlar har ikki adibning keksa qahramonlarini yodimizga soladi. Aynan ulardagi barkamollik sifatleri bola ongi va ruhiyatiga o‘z tasirini o‘tkazishi natijasida asar kompozitsiyasida turli o‘rinlarda kitobxonni ham o‘ylantiruvchi konfliktlarni (ziddiyat) yuzaga keltiradi. Ularning ijodini o‘rganganimiz sari fikr va g‘oyalar paydo bo‘laveradi, masalalarga esa, yangicha yondashuv asosida yechim izlayveramiz. Ehtimol bu, ularning asarlari hamisha barhayot bo‘lishiga bir ishoradir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov A. Tanqidchilik ufqlari. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1985.
2. Qo‘shjonov M. Saylanma. 2-tom. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
3. Xolliyev N. Ohangdosh obrazlar. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1982.
4. Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1989.
5. Qo‘shjonov M. Onaga tazim, bolaga mehr. Toshkent. “Yosh gvardiya” nashriyoti.1983.
6. Boltaboyev H, Mahmudov M. Adabiy estetik tafakkur tarixi. 1-jild. Toshkent. “Mumtoz so‘z” .2013.
7. Aflotun. Qonunlar. –T.: Yangi asr avlodi, 2002.
8. Qosimov A. Adabiyotda bolalik ma‘naviy-axloqiy kategoriya sifatida: filol.fan.nomz...diss. –T.,1999.
9. Qosimov A. ,Hamroqulov A. , Xo‘jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr,2019.
10. Potebnya A .A. Estetika va poetika. – M., 1976. – S.341.

<sup>12</sup> Boltaboyev H, Mahmudov M. Adabiy estetik tafakkur tarixi. 1-jild. Toshkent. “Mumtoz so‘z” .2013. – B.159.

<sup>13</sup> Aflotun. Qonunlar. –T.: Yangi asr avlodi, 2002. –B.41